

## TADBIRKORLARNING ISHONCHLI HAMKORI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlik harakatining umumiy ravnaqiga qo'shadigan hissasini ko'paytirish Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

«Asaka» Aksiyadorlik tijorat banki Xorazm viloyat filiali jamoasi tadbirkorlar tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarilishini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash asosida yangi ish o'rinlari yaratish, jahon bozorida xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi amalga oshirayotgan ishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intilmoqda.

Xususan, Xorazm viloyatining 2015-2016 yillarda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi yuzasidan muayyan ishlar bajarilmoqda. Pirovardida viloyat sanoati jadal taraqqiy etib, ko'plab yangi korxonalar ishga tushirilayapti, mavjudlari texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilinib, ichki bozor import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirilmoqda.

Prezidentimizning 2015 yil 15 mayda «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish imkoniyatlarni yaratdi.

Bunga «Muxammadamin profil» xususiy korxonasi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur korxonaga «Asaka» bank krediti hisobiga xorijdan zamonaviy texnologik liniya olib kelinib, metall mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida 4 nafar yangi ish o'ri yaratildi.

Bank filiali aholi va tadbirkorlarga yangi xizmat turlarini joriy etishga intilmoqda. Bundan mijozlar va tadbirkorlar mamnun bo'lmoqdalar.

—Faoliyatimiz ko'lamlarini yanada kengaytirish maqsadida «Asaka» bankiga murojaat etdik, — deydi Urganch tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Abdukarim Bekpo'lat» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Bekpo'lat Abdulkarimov. — Bank xodimlari bizning so'rovimizni qisqa muddatda ko'rib chiqib, ijobiy hal etishdi. Bank tomonidan kir yuvish kukuni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit ajratildi. Natijada 5 nafar yangi ish o'ri yaratildi. Hozirda ishlab chiqarayotgan mahsulotimiz peshma-pesh iste'molchilarga yetkazib berilmoqda.

Bank filialining malakali mutaxassislari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlash lozim. Bu xayrli tashabbus ularning ishbilarmonlik qobiliyatlarini yanada to'laroq ro'yobga chiqarish, ular tayyorlayotgan biznes loyihalarning pishiq-puxta bo'lishi, turli ovoragarchiliklarni bartaraf qilishda alohida ahamiyat kasb etyapti. Endilikda mijozlar moliya muassasasi xizmatiga oid savollari bilan bankning o'zida o'rnatilgan «Ishonch telefoni» orqali murojaat etib, mas'ul mutaxassislardan tegishli maslahatlar olishmoqda.

Bank filialida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularga qulayliklar yaratish hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish maqsadida «Tadbirkorlar xonasi» tashkil etilgan. Zaruriy texnik vositalar,

ko'rgazmali stendlar va me'yoriy hujjatlar bilan jihozlangan bu xonada ishbilarmonlar sohadagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishmoqda. Shuningdek, ular bugun taqdim etilayotgan bank xizmatlari, kreditlash va lizing operatsiyalari mazmun-mohiyati haqida tushuncha beruvchi bosma materiallar bilan yaqindan tanishmoqdalar.

— Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda «Asaka» bankning o'rni katta bo'lmoqda, — deydi Yangibozor tumanidagi «Jasur Jamshid bog'i» fermer xo'jaligi rahbari Muqaddas Xudoyberganova. — Ishbilarmonlar bank muassasidan olgan kredit mablag'lari evaziga o'zlariga ajratilib berilgan yer maydonlarida, tomorqalarida mo'l-ko'l qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib, bozor peshtoqlarini noz-ne'matlar bilan to'ldirmoqdalar. Shular qatori men ham viloyatimiz aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlarita bo'lgan talabini qondirish maqsadida uzumchilikni rivojlantirishga kirishdim. Bank xodimlari mening loyihamni ro'yobga chiqarish uchun biznes rejamizga asosan uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratishdi. Buning natijasida 4 nafar yangi ish o'rni yaratishga erishdik. Kelgusida ichki bozorlarimizni yangi turdagi mahsulotlar bilan to'ldirib, xorijga ham eksport qilish maqsadida izchil ish olib boryapmiz.

Bankning iqtisodiy madadiga oid bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Umuman joriy yilning birinchi choragi mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 18,2 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Shundan 3,1 mlrd. so'mi ayollar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, 1,2 mlrd. so'mi xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishga, 12,8 mlrd. so'mi esa ichki bozorni oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga yo'naltirildi.

Viloyat aholisiga namunali xizmat ko'rsatish, shuningdek, chekka hududlarni ham to'la qamrab olish maqsadida hozirda filial tarkibida 6 ta mini bank, 6 ta chakana bank xizmatlari ko'rsatuvchi shahobchalar faoliyat yuritmoqda. Natijada joriy yilning 1 aprel holatiga ko'ra iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari miqdori qariyb 140,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu borada o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 5,9 mlrd so'mga o'sishga erishildi. Mazkur kredit mablag'larining asosiy qismi uzoq muddatli ekanligi quvonarlidir.

—Bugungi kunda «Asaka» bank tadbirkorlar bilan yaqin hamkor va madadkor sifatida mustahkam aloqa bog'lagan, —deydi «Yuqoribog' ne'matlari» agrofirma rahbari Marks Rahmonov. —O'z biznesini rivojlantirish istagida bo'lgan tadbirkorlarga «Asaka» bank moliyaviy yordam ko'rsatmoqda. O'z faoliyatimdan misol keltiradigan bo'lsam, men ham yaxshi niyatlar bilan ish boshladim. Bozorlarimiz peshtoqlarini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan yil mobaynida uzluksiz ta'minlashga hissa qo'shishga qaror qildim. Shu maqsadda qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlaydigan 550 tonnalik muzlatgich qurishga astoydil bel bog'ladim. «Asaka» bankning malakali mutaxassislari loyihamni tez fursatda ko'rib chiqib imtiyozli tarzda uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratishdi. Shu tufayli faoliyatimizni yo'lga qo'ydik. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ichki bozorga yetkazib berish bilan birga, xorijiy davlatlarga ham eksport qilishni mo'ljallamoqdaman.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bank filiali mutaxassislari kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan turli anjuman va tadbirlarda faol ishtirok etib, o'z biznes faoliyatini boshlashni ixtiyor etgan yoshlarga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirmoqdalar. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Urganch filialida «Diplom bilan biznes g'oyaga» shiori ostida o'tkazilgan uchrashuvda o'zlarining biznes g'oyalarini ro'yobga chiqarishga bel bog'lagan bitiruvchilarga moliyaviy ko'mak berish maqsadida 4 nafar yosh yigit-qizga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi.

— Respublikamizdagi ishonchli va barqaror banklardan bo'lmish «Asaka» banki kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda,—deydi yosh tadbirkor Xusain Safoev. — Viloyatimizning barcha hududlarida «Asaka» bank mutaxassislari va yoshlar ishtirokida o'tkazilayotgan uchrashuvlarda imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar ega bo'lib, o'z biznesini tashkil qilgan yoshlarni ko'rib, to'g'risi havasim kelardi. Bugun o'zim ham ular safiga qo'shilganimdan bag'oyat xursandman. Bankning malakali mutaxassislari biznes-g'oyam bilan tanishib, menga imtiyozli kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishdi. Endilikda men tashkil etgan ovoz yozish studiyasi Urganch shahri aholisiga namunali xizmat ko'rsatmoqda. Kelgusida zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida xizmat ko'lamlarini yanada kengaytirish ezgu niyatim. Bunda albatta «Asaka» bankning moliyaviy ko'magiga tayanaman.

Muxtasar qilib aytganda, «Asaka» bank Xorazm viloyat filiali jamoasi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash, bank amaliyotlari tezkorligini oshirish bo'yicha faol ishlar olib bormoqda. Bank filiali tomonidan ko'rsatilayotgan tezkor, sifatli hamda qulay xizmatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari safini kengaytirib, ularning viloyat iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini oshirmoqda.

Joriy yilda bank filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 70,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

**«Asaka» bank Axborot xizmati**